



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

## БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

# МАТЕРИАЛЛАРИ



19-oktabr 2021-yil

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ**  
**УНИВЕРСИТЕТИ**

**МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ**

**БУХОРО МУСИҚА**  
**ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-**  
**НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ**  
**МАСАЛАЛАРИ**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**19 октябрь**

**Бухоро - 2021**

#### 4-ШЎБА. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ-ХАЛҚИМИЗНИНГ БЕҚИЁС МАЪНАВИЙ МЕРОСИ

### ХАЛҚ МУСИҚА ИЈОДИНИ О՛РГАНИШДА ХАЛҚ ҚО՛ШИҚЛАРИНИНГ О՛РНИ

Norova Sh.U., BuxDU Musiqa taʼlimi kafedrası katta  
oʻqituvchisi, E-mail: [s.u.norova@buxdu.uz](mailto:s.u.norova@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Oʻzbek xalq qoʻshiqlari tuzilish jihatidan sodda va oddiy boʻlib, musiqa ohanglari dilga yoqimli, ijro etish uchun xam, qulay boʻlib, qoʻshiq poeziyasi ham maʼnodordir. Xalq qoʻshiqlari oʻzbek kompozitorlari ijodida asosiy oʻrin tutib musiqa sanʼatining qaysi janri boʻlmasin yaʼni operadami, simfonik asarlaridami yoki estrada sanʼatidan salmoqli ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodini oʻrganishga keyingi vaqtda jiddiy eʼtibor berilmoqda, bu borada jahonshumul anjumanlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda, anjumanlarda, avloddan - avlodga yaʼni maqomlarning amaily, nazariy va tarbiyaviy imkoniyatlari izchil tahlil qilinib maqom sanʼati, maqomlarni sevish va tushunish hamda badiiy zavqlari uchun xalqning oddiy koʻrinishdagi qoʻshiqlarni yaxshi bilish, hamda qadrlash, bu qoʻshiqlar zaminida yaʼni oddiylikdan murakkablikka oʻtish natijasida xalq musiqaviy merosiga mehr - muhabbat uygʻotish bilan bir vaqtda bu asarlar inson qalbiga olam - olam badiiy - estetik zavq bagʻishlaydi.

**Kalit soʻzlar:** xoreografiya, ritmik, professional, uzviy, diapozon, mashgʻulot, maʼnaviyat, sanʼatkor, atroflicha.

Oʻzbek musiqa madaniyatining taniqli arboibi, akademik Rajabiy oʻzining “Musiqa merosimiz haqida”gi asarida xalq ohanglari bilan, maqom ijrochilik yoʻllarining chamchas bogʻliqligi toʻgʻriisda toʻxtalgan. Xalq qoʻshiqlar oʻzining ohang tuzulishi va ritmik koʻrinishlari bilan xalq ogʻzaki ijodining professional koʻrishi boʻlgan koʻp qismli vokal cholgʻu asari boʻlmish maqomlar bilan ham uzviy bogʻliqdir. Maqomlar asosan ovoz diapozonining kengligi va masshtabning kattaligi, ijrochilikdagi murakkabiligi bilan xalq ashulalaridan farq qiladi.

Maqomlarning ijrochilikdagi murakkaligi va hozirgi vaqtda oʻrta maktablardagi musiqa darsi jarayonida hamda toʻgarak mashgʻulotlarida atroflicha tahlil qilib oʻrganilganligi uchun ham, bu nodir musiqa merosimizdan yoshlar ham bahramand boʻlmoqda. Chunki xalq qoʻshiqlari, maqomlar asirlar Osha xalqimiz ogʻzaki ijodidan tushmasdan qoʻllanib bizgacha yetib kelishligini boisi ham bu qoʻshiqlarning xalq maʼnaviyatiga ijobiy oʻrin tutganligidandir.

Xalq kuylari va qoʻshiqlari asosida qayta ishlagan. “Sumalak”, “Boychechak”, “Qargʻalar”, “Yallama - yorim”, “Tom boshida togʻora”, “Ok terakmi koʻk terak” kabi qoʻshiqlarida oddiy oʻzbek hayotining qaynoq nafasi ufurib turadi. “Boychechak” qoʻshigʻida bahor ramzining poetik ifodasi joʻshqin misralarida koʻklam boʻlib jonlanadi.

Bu qoʻshiqlar faqatgina oʻzbek xalqining madaniy boyligi boʻlb qolmasdan, jahon sanʼatining umumiy maxsuliga aylandi. Chunki bunday qoʻshiqlarning soʻz turkumi aniq boʻlib, musiqiy ravonligi dillarni quvontiradi: ham ijro uchun qulay ham poetik rang - barangligi bilan taʼsirchan chiqadi. Musiqa sanʼatining qaysi

janrida bo'lmasin, operadami, baletdami, simfonik asardami yoki estrada kuylaridami, albatta xalq musiqasining salmoqli xissasi bor. Xalq mehrlari daryo ijodkor. Xalq musiqa san'atining qaynar bulog'i yaratuvchilarining doimiy ilhom va ijod manbidir. Maqomlar mohiyatini to'g'ri tushunish uchun avvalo oddiy xalq qo'shiqlarini sevish, musiqa san'atini qadrlash, eng muhimi, madaniyat merosiga e'tiqod qo'yish lozim.

Inson borki ishq bor, muhabbat bor. Avlodidan keyin kichik avlod, nasldan keyin nasl keladi, ammo insondagi muhabbat tuyg'usi, qalbdagi ehtirosli his-tuyg'ular uyg'onishi o'zgarmaydi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida shunday to'rtlik bor:

Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodimizdagi lirika jinsiga mansub janrdir. Bu janrning boshqa turdagi asarlardan farq qiluvchi bosh xususiyati unda ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashdan iborat. Bu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Boshqa janrdagi asarlarda qahramonning ruhiy holatini aks ettirish belgisi yo'qmi? Boshqa janrlardagi asarlarda asosiy yo'nalish voqeani bayon qilishdan iborat bo'ladi. Faqat ayrim o'rinlardagina his-hayajon tasviri bilan bog'liq parchalarni uchratamiz. Bu o'rinlarda lirik tasvir qahramon qiyofasini ochishda usul bo'lib xizmat qiladi. Xorazm dostonlari bundan istisno. Chunki xorazmlik baxshilar ijro etgan dostonlarning she'riy parchalari qo'shiq qilib aytiladi va ular ham lirik jins namunasi hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari esa to'liq ravishda lirik ijod sifatida belgilangan. Taniqli olim, xalq qo'shiqlarining yirik tadqiqotchisi, butun umrini xalq qo'shiqlarini yozib olish, o'rganish, nashr qilishga bag'ishlagan fidoyi inson Muzayyana Alaviya mazkur asarlarga: "...oddiy hayot hodisalari tug'dirgan hissiyotni ifodalagan, kuyga solishga qulay, qisqa, esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo'lgan she'r qo'shiq bo'la oladi", - deb ta'rif beradi.

Haqiqatan ham, qo'shiqning paydo bo'lishiga bosh sabab inson kayfiyatidagi chuqur iztirob yoki to'satdan paydo bo'lgan ko'tarinki ruhdur. Inson noxush damlarda ko'proq sukut saqlaydi, xayolda vaziyat yechimini topishga urinadi. Bunday daqiqalarda mungli kuy tasalli beradi, ko'ngilni bir oz bo'lsa-da yozadi. Xursandchilik onlarida esa sho'x qo'shiq, raqs hamroh bo'ladi.

#### Adabiyotlar

1. Norova Shoiri Umrzakovna OBUCHENIE STUDENTOV V DUXE UVAJENIYA K NATSIONALNIM SENNOSTYAM POSREDSTVOM MUZYKALNOGO OBRAZOVANIYA // Nauka, texnika i obrazovaniye. 2021. №2-2 (77).

2. Shoiri Umrzakovna Norova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI VA TUZILISHI // Scientific progress. 2021. №5.

3. Norova Shoiri Umrzakovna, Xazratova Kamola Nusratillayevna ROL OBRAZOVANIYA V PODGOTOVKE KVALIFITSIROVANNYX SPETSIALISTOV // Academy. 2021. №2 (65)

4. M. Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari.-T.O'zRFA nashriyoti 1959

5. D. Rajabov. T. Rajabov Xalq qo'shigi va musiqa ijrochiligi Ilmiy risola. Toshkent Navro'z nashriyoti 2018

балетном пространстве	
<b>С. В. Богдан.</b> Смехотерапия как универсальная технология социально-культурной деятельности в воспитании базовой культуры подростков	73
<b>Аксёнова М. В., Тарасова Ю. Б.</b> Образовательные программы русской православной церкви как средство сохранения традиционной культуры России	79
<b>Д.Реймов.</b> Эмпатия как условие организации процесса обучения игре на скрипке в младшей возрастной группе	82
<b>O‘rinov A.A.</b> Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari	85
<b>Муродов М.Қ.</b> Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг вазифалари	88
<b>Qayumov I.F.</b> Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksalib borishida san'atning tutgan o'rni	91
<b>Umurova M.Yo.</b> O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi	93
<b>Shamsiyev Sh.I</b> Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy ijodkorlik faoliyati	96
<b>Хомидов Х.К.</b> Талабаларда ватанга садоқат ғоясини шакллантиришнинг асосий мезонлари	98
<b>Д.З.Ражабов.</b> Халқ кўшиқларида композиция муаммоси	101
<b>Моянов Ықласбай Жийенбаевич.</b> Қорақалпоқ фольклор санъатининг ёшлар маънавий -ахлоқий тарбиясига таъсири	103
<b>Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li.</b> XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda musiqa va qo'shiqchilik san'ati	106
<b>X.Axrоров.</b> Bolalar tafakkurini rivojlantirishda musiqa fanining o'rni	107
<b>Бобуршоҳ Нуруллаев.</b> Ўзбек халқ кўшиқлари – бадий тушунчани ўстирувчи восита	110
<b>Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев, С.Б. Саидий.</b> Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти	112
<b>Munisa Uzakova.</b> Adabiyot va musiqa fanlarini o'qitishda integratsiya	117
<b>4-ШЎБА. ЎЗБЕК ХАЛҚ КЎШИҚЛАРИ - ХАЛҚИМИЗНИНГ БЕҚИЁС МАЪНАВИЙ МЕРОСИ</b>	
<b>Norova Sh.U.</b> Xalq musiqa ijodini o'rganishda xalq qo'shiqlarining o'rni	120
<b>Qo'shayev I.A</b> O'zbek xalq musiqa ijodi	122
<b>Qurbonov J.J.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning qo'shiq aytish malakalarini ostirish	123
<b>Karimov O.I.</b> Xalq cholg'ularida o'qitish uslubi	125
<b>Raxmatova M.O.</b> O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda hofizlik san'ati	127
<b>Ramazonova O'.X.</b> An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tanlash va tarbiyalash	129
<b>Rahmonova I.M.</b> O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda qo'shiqlarning o'rni	131
<b>Gulov Sadritdin Niyozovich.</b> Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati darslari"ning mohiyati	133
<b>Ибодова Севарабону.</b> Умумий ўрта таълим мактабларида халқ кўшиқларининг тарбиявий аҳамияти	135
<b>Ibodov O'.R.</b> Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish	139
<b>Axrоров X.X.</b> Shaxsni tarbiyalash va shakllantirishda musiqaning o'rni	141
<b>Давлатназар Юсупов.</b> Ўзбек бахшичилик санъатининг ривожи ва ёшлар	143